

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

**THEORETICAL FOUNDATIONS FOR STUDYING THE ENRICHMENT OF
VOCABULARY STOCK OF A LANGUAGE FROM A COGNITIVE AND
SOCIOLINGUISTIC POINTS OF VIEW**

S.A Khamzayev*Associate professor at Uzbekistan state world languages university**Doctor of Philosophy in Philology (PhD)**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: vocabulary stock, cognitive linguistics, sociolinguistics, concept, conceptualization, frame, gender.

Received: 19.11.25**Accepted:** 20.11.25**Published:** 21.11.25

Abstract: In modern linguistics, the processes of enrichment of linguistic vocabulary and word formation are explained not only from a phonetic, morphological or etymological point of view, but also on the basis of cognitive and sociolinguistic paradigms. This suggests that a language is not only a means of communication, but also an expression of human thought, culture and social environment. The development of vocabulary stock of language is a systematic process that embodies the dynamics of human thinking (cognition) and the life of society.

**TIL LUG'AT TARKIBINING BOYISHINI KOGNITIV VA SOTSIOLINGVISTIK
NUQTAI NAZARDAN O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI**

S.A Xamzayev*O'zDJTU dotsenti**filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: til lug'at tarkibi, kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, konsept, kontseptualizatsiya, freym, gender.

Annotatsiya: Hozirgi zamon tilshunosligida til lug'at tarkibining boyishi va so'z yasash jarayonlari nafaqat fonetik, morfologik yoki etimologik nuqtai nazardan, balki kognitiv va sotsiolingvistik paradigmalar asosida ham izohlanmoqda. Bu esa tilning nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki inson

tafakkuri, madaniyati va ijtimoiy muhitining ifodasi ekanligini ko'rsatadi. Til lug'at tarkibining rivojlanishi – inson tafakkuri (cognition) va jamiyat hayotining dinamikasini o'zida aks ettiruvchi tizimli jarayondir.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ ОБАГАЩЕНИЯ СЛОВАРНОГО СОСТАВА ЯЗЫКА С ТОЧКИ ЗРЕНИЯ КОГНИТИВНОЙ ЛИНГВИСТИКИ И СОЦИОЛИНГВИСТИКИ

С.А Хамзаев

*Доцент Узбекского государственного университета мировых языков
доктор философских наук по филологии
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: словарный состав языка, когнитивная лингвистика, социолингвистика, концепт, концептуализация, фрейм, гендер.	Аннотация: В современной лингвистике процессы обогащения словарного состава языка и словообразования объясняются не только с фонетической, морфологической или этимологической точки зрения, но и на основе когнитивной и социолингвистической парадигм. Это говорит о том, что язык является не только средством общения, но и выражением человеческой мысли, культуры и социального окружения. Развитие словарного состава языка – это систематический процесс, который отражает динамику человеческого мышления (познания) и жизни общества.
---	--

Kirish. Til lug'at tarkibining boyishi va rivojlanishini ilmiy jihatdan izohlashda so'nggi o'n yilliklarda kognitiv lingvistika nazariyasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Uning asosiy g'oyasi shundan iboratki, til faqat grammatik qonunlar majmuasi emas, balki inson ongidagi bilish jarayonlari bilan chambarchas bog'liq tizimdir. Shu bois til lug'at tarkibining boyishini tahlil etishda ham insonning dunyo haqidagi kontseptual tajribasi, mental modellari va madaniy kognitiv sxemalari muhim rol o'ynaydi.

O'zbek tilshunosligida ham til lug'at tarkibidagi o'zgarishlarning ijtimoiy va ma'naviy omillar bilan bog'liqligi haqida so'nggi yillarda qator ishlar amalga oshirildi. Biroq kognitiv va sotsiolingvistik yondashuvlarni bir tizimda qo'llab lug'at rivojlanishini tahlil qilish hali yetarli darajada amalga oshirilmagan. Mazkur maqola til lug'at tarkibi boyishining ilmiy-nazariy asoslarini zamonaviy lingvistik yo'nalishlar bilan uyg'un holda yoritishga qaratilgan.

Inson bilish faoliyatining tildagi ifodasi – ya‘ni kontseptualizatsiya jarayoni – yangi so‘z va ma‘no yaratishning manbai sifatida qaraladi. Ingliz va o‘zbek tillarida ham yangi leksik birliklar, so‘z birikmalari yoki metaforalar inson tafakkuridagi yangi kontseptlarni ifoda etish ehtiyojidan kelib chiqadi. Masalan, cloud, virus, memory, network kabi so‘zlar ilk ma‘nolaridan uzoqlashib, kognitiv metafora orqali yangi semantik maydon yaratgan. O‘zbek tilida esa foydalanuvchi, sahifa, obuna bo‘lmoq kabi so‘zlar zamonaviy tafakkurning yangi kognitiv modellarini ifoda etmoqda.

Shunday qilib, til lug‘at tarkibidagi boyish jarayonini faqat tashqi ta‘sirilar yoki o‘zlashmalar natijasi sifatida emas, balki inson ongidagi kontseptual o‘zgarishlarning natijasi sifatida ham talqin etish mumkin. Bu esa lug‘at tarkibi rivojlanishining chuqur kognitiv asosi mavjudligini ko‘rsatadi.

Kognitiv lingvistika tilni bilish jarayonlarining markaziy elementi sifatida ko‘riladi. Bu yo‘nalishda til inson ongidagi tafakkur, his-tuyg‘u va madaniy tajribaning ifodasi sifatida talqin etiladi.

J. Lakoff va M. Jonson tildagi metaforalar inson tafakkurining tuzilishi bilan bog‘langanligini asoslab berishgan. Unga ko‘ra, til lug‘at boyishi ko‘pincha metaforalash, metonimiya va kategoriyalash jarayonlari orqali amalga oshiriladi. Kognitiv yondashuvning asosiy tushunchalaridan biri – kontseptdir. Kontsept muayyan so‘zning ma‘no doirasidan kengroq bo‘lib, inson ongida ma‘lum bir voqelik, tajriba yoki madaniy tasavvurning mental modeli sifatida shakllanadi. Masalan, ingliz tilida home kontsepti nafaqat jismoniy turar joyni, balki xavfsizlik, muhabbat va tinchlik kabi hissiy tajribalarni ham qamrab oladi. O‘zbek tilida uy kontseptida ham shunday emotsional-ma‘naviy komponentlar mavjud. Bu holat til lug‘at tarkibining boyishida madaniy omilning muhimligini ko‘rsatadi.

Boshqa muhim kognitiv tushuncha – freymdir. Freym – bu ma‘lum vaziyat yoki voqea haqidagi bilimlar tizimi bo‘lib, tilda so‘z va ifodalarni tanlashni boshqaradi. Masalan, ish freymida xodim, maosh, ofis, rahbar kabi leksemalar faollashadi. Freym nazariyasi lug‘at tarkibi boyishining kognitiv modeli sifatida xizmat qiladi, chunki yangi so‘zlar ko‘pincha mavjud freymga kirish yoki yangi freym yaratish orqali paydo bo‘ladi.

Kognitiv lingvistikada kategoriyalash (categorization) jarayoni ham lug‘at rivojlanishining asosiy mexanizmi hisoblanadi. Inson dunyo haqidagi bilimni muayyan toifalarga ajratish orqali ifoda etadi, va har bir toifa tilda so‘z bilan belgilanadi. Yangi bilim yoki tajriba paydo bo‘lganda, yangi so‘z (leksema) yuzaga keladi. E. Roshning fikricha, inson tafakkuri “prototipik kategoriyalash” orqali ishlaydi: ya‘ni har bir ma‘no markazida eng tipik namunalar joylashadi. Masalan, “bird” (qush) kategoriyasida har qanday qush emas, balki o‘sha hududda eng ko‘p tarqalgan qush turi, masalan “robinbird” (malinovka) obrazi prototip sifatida markazda turadi.

Kognitiv yondashuvning muhim jihati shundaki, lug‘at tarkibining boyishi tilning ichki mexanizmi bilan birga insonning bilim olish va voqelikni anglash usuli bilan bog‘liq. Tildagi har

bir yangi soʻz, ibora yoki metafora muayyan kontseptual oʻzgarishning ifodasidir. Masalan, ingliz tilida cloud soʻzining IT sohasiga koʻchishi – data storage maʼnosida – yangi kontseptning tilda ifoda topishiga misol boʻladi. Shu kabi oʻzbek tilida ham veb sahifa, trafik, fayl, obuna boʻlmoq soʻzlari yangi kognitiv freym – raqamli muhit bilan bogʻliq kontseptlar asosida boyish jarayonini koʻrsatadi.

Kognitiv yondashuv til lugʻat tarkibining boyishida metaforalash, metonimiya, assotsiativ bogʻlanishlar, sxemalar va modellarning oʻrnini alohida belgilaydi. Inson har bir yangi bilimni mavjud bilimlar tuzilmasiga bogʻlab qabul qiladi. Shu bois lugʻat boyishi – bu tildagi maʼnoning yangi tarmoqlar orqali kengayishi, yaʼni maʼno makonining dinamik oʻsishidir.

Oʻzbek tilshunosligida kognitiv yondashuv asosidagi tadqiqotlar oxirgi yillarda faol rivojlanmoqda. Ularda tildagi maʼno oʻzgarishi va yangi soʻz yaratish jarayonlari milliy dunyoqarash bilan bogʻliq holda izohlanadi. Masalan, “nikoh toʻyi”, “sunnat toʻy”, “aqiqa toʻy” kabi soʻzlar oʻzbek madaniyatidagi maʼnaviy kontseptlar bilan chambarchas bogʻlangan boʻlib, ularning semantik doirasining kengayishi tilning kognitiv rivojlanishini koʻrsatadi.

Shunday qilib, kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan lugʻat boyishi – bu tilning inson ongidagi kontseptual tizim bilan oʻzaro taʼsirda rivojlanish jarayonidir. Bu yondashuv lugʻat tarkibining rivojlanishini faqat til ichidagi grammatik yoki etimologik jarayon emas, balki bilish, fikrlash va dunyoqarash tizimidagi oʻzgarish sifatida koʻradi.

Tilning lugʻat tarkibi jamiyatda kechayotgan ijtimoiy, siyosiy va madaniy oʻzgarishlarning bevosita ifodasidir. Sotsiolingvistika tilni jamiyatning ijtimoiy tizimi bilan uzviy bogʻliq holda oʻrganadi. Shu nuqtai nazardan lugʻat boyishi faqat ichki lingvistik qonunlar natijasi emas, balki jamiyat hayotidagi tashqi omillar taʼsirida yuzaga keladigan dinamik jarayondir.

Sotsiolingvistik tadqiqotlarda tilning rivojlanishi uch yoʻnalishda koʻriladi:

- ijtimoiy qatlamlar taʼsiri;
- madaniy va taʼlim sohalaridagi oʻzgarishlar;
- siyosiy va iqtisodiy jarayonlar natijasidagi til oʻzgarishlari.

Bu omillar til lugʻat tarkibida yangi soʻzlar, yangi maʼno va ifodalarning paydo boʻlishiga olib keladi. Jamiyatdagi turli qatlam va guruhlar – yoshlar, kasbiy doiralar, shahar va qishloq muhiti – lugʻat boyishiga turlicha taʼsir koʻrsatadi. Masalan, ingliz tilida slang va colloquial speech elementlari yoshlar madaniyati orqali tez ommalashadi. Cool, chill, flex, vibe kabi soʻzlar ilk bor maʼlum bir yosh guruhlar tomonidan qoʻllanilgan boʻlsa, keyin keng lugʻat tarkibiga kirib borgan. Oʻzbek tilida ham shunday jarayon kuzatiladi: layk bosmoq, follover, sabskrayber kabi oʻzlashmalar yoshlar tili orqali ommalashmoqda. Bu holat tilning tabiiy rivojlanishini taʼminlaydigan ijtimoiy mexanizm sifatida qaralishi mumkin.

Sotsiolingvistik jihatdan lugʻat boyishining yana bir muhim manbai madaniy integratsiya va taʼlim sohasidagi yangilanishlardir. Til lugʻati jamiyatdagi madaniy tendentsiyalar bilan hamohang ravishda yangilanadi. Masalan, ingliz tilida multiculturalism, diversity, inclusion, gender equality kabi atamalar soʻnggi oʻn yilliklarda yangi ijtimoiy voqelikni ifoda eta boshladi. Oʻzbek tilida ham innovatsiya, blokcheyn, media savodxonlik, gender tengligi kabi atamalar lugʻat tarkibida mustahkam oʻrin oldi. Bu soʻzlar faqat oʻzlashma emas, balki yangi ijtimoiy kontseptlarning lingvistik ifodasidir.

Jamiyatdagi siyosiy oʻzgarishlar tilning rivojlanish yoʻnalishini belgilaydi. Masalan, ingliz tilida Brexit, globalization, sanctions, climate policy kabi atamalar soʻnggi oʻn yilliklarda faol lugʻat qatlamiga kirdi. Bu soʻzlar maʼlum siyosiy voqelikni belgilash bilan birga, yangi kontseptlarni ham shakllantirdi. Oʻzbek tilida ham raqamli iqtisodiyot, investitsiya muhiti, yoshlar kovorking markazlari kabi atamalar davlat siyosatining muhim sohalarini belgilab bermoqda. Bu soʻzlar nafaqat terminologik ahamiyatga ega, balki tilning ijtimoiy faol qatlamini boyitishda muhim rol oʻynaydi.

Sotsiolingvistika nuqtai nazaridan lugʻat boyishining muhim manbaidan biri – migratsiya va transmilliy muloqotdir. Turli millat va til vakillarining doimiy aloqasi tildagi oʻzgarishlarni tezlashtiradi. Ingliz tilida bu jarayon “World Englishes” nazariyasi orqali oʻrganiladi. Unga koʻra, ingliz tili turli mintaqalarda oʻz mahalliy xususiyatlarini olgan va shu orqali yangi lugʻat qatlamlari yuzaga kelgan. Oʻzbek tilida ham chet ellar bilan madaniy va iqtisodiy aloqalarning faollashishi natijasida lugʻat boyishi jadallashmoqda. Masalan, vebinar, startap, menejment, targeting, kontent, brending kabi atamalar oʻzbek tilida faol qoʻllanilmoqda. Ular nafaqat iqtisodiy sohani, balki axborot madaniyatini ham belgilaydi.

Zamonaviy tilshunoslikda gender va yosh faktorlari lugʻat boyishiga taʼsir qiluvchi muhim sotsiolingvistik omillar sifatida qaraladi. Ingliz tilida Ms., non-binary, they/them pronouns kabi atamalar tilning ijtimoiy tenglikni taʼminlashga qaratilgan leksik oʻzgarishlaridir. Oʻzbek tilida ham loyiha rahbari, tadbirkor ayol, yosh lider, faol qizlar klubi kabi ifodalar gender tengligi va yoshlar siyosatining lingvistik ifodasi boʻlib xizmat qilmoqda. Bu jarayon tilning ijtimoiy dinamikadagi faolligini koʻrsatadi.

Kognitiv va sotsiolingvistik yondashuvlar til lugʻat tarkibining boyish jarayonini izohlashda oʻzaro uygʻunlikda faoliyat yuritadi. Bu ikki yoʻnalishning umumiy nuqtasi shundaki, ikkalasi ham tilni faqat grammatik yoki leksik tizim emas, balki inson bilishi va ijtimoiy muhit bilan chambarchas bogʻliq hodisa sifatida talqin etadi. Shu nuqtai nazardan ingliz va oʻzbek tillarining rivojlanish yoʻnalishidagi umumiy va farqlovchi jihatlarni tahlil qilish kognitiv-sotsiolingvistik parallellarni aniqlash imkonini beradi.

Inson bilishi va tafakkuri universal xususiyatga ega bo'lgani sababli, turli tillardagi lug'at boyish jarayonlari ko'p hollarda umumiy kognitiv mexanizmlarga tayanadi. Masalan, metafora va metonimiya asosida yaratilgan yangi leksik birliklar har ikki tilda ham keng tarqalgan. Ingliz tilida "time is money", "argument is a war", "life is a journey" kabi kognitiv metaforalar kundalik nutqning ajralmas qismi bo'lib, ular tilning semantik maydonini kengaytiradi. O'zbek tilida ham shunday kognitiv modellar kuzatiladi: "Vaqt – oltin", "Hayot – kurash", "Taqrir – yo'l" kabi tushunchalar milliy mentalitet va dunyoqarashning lingvistik ifodasidir. Bu misollar til lug'at tarkibining boyishi nafaqat tashqi ta'sirlar, balki kognitiv jarayonlar – ya'ni inson ongidagi ma'no yaratish qobiliyati bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, til lug'at tarkibi boyishida ijtimoiy muhitning ham ta'siri muhim ahamiyatga ega. Ingliz va o'zbek tillarida yoshlar madaniyati, ommaviy axborot vositalari va internet til lug'at tarkibini tez yangilaydi. Selfie, vlog, to google kabi neologizmlar yoshlar orqali lug'atga kirgani kabi, o'zbek tilida ham post qilmoq, layk bosmoq singari gibril leksemalar keng tarqalgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, kognitiv yondashuv nuqtai nazaridan lug'at boyishi tilning inson ongidagi kontseptual tizim bilan uzviy bog'liq rivojlanish jarayonidir. Ya'ni har bir yangi so'z yoki ma'no inson bilishidagi yangi kontseptni ifoda etadi.

Sotsiolingvistik jihatdan til lug'at tarkibi jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va siyosiy o'zgarishlarning to'g'ridan-to'g'ri ifodasidir. Globallashuv, internet madaniyati, yoshlar tili va gender tengligi kabi omillar lug'at rivojlanishini tezlashtirmoqda.

Ingliz va o'zbek tillarida kognitiv va sotsiolingvistik jarayonlar o'xshash qonuniyatlar asosida kechadi, biroq ularning amaliy ko'rinishi madaniy va tipologik xususiyatlarga bog'liq ravishda farq qiladi. Lug'at boyishini o'rganishda kognitiv va sotsiolingvistik yondashuvlarni uyg'un qo'llash har ikki tildagi dinamik o'zgarishlarni ilmiy asosda izohlash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari tilshunoslikda lug'at rivojlanishini faqat grammatik emas, balki ma'no, inson tafakkuri va jamiyatdagi mavjud tizim bilan bog'liq xolistik jarayon sifatida ko'rish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Axmedov A.B. Til lug'at tarkibining yangilanish jarayonlari lingvistik muammo sifatida (monografiya). – Qarshi, "Intellekt", 2022. – 176 b.
2. Fillmore, Ch. Frame Semantics. – Seoul: Hanshin Pub. Co., 1982. – Pp. 113.
3. Kachru B.B. Standards, Codification and Sociolinguistic Realism: The English Language in the Outer Circle. In R. Quirk & H. G. Widdowson (Eds.), English in the World. – Cambridge: Cambridge University Press, 1985. – Pp. 11-30.
4. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – P. 13.

5. Lakoff, G. Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind. – Chicago: University of Chicago Press, 1987. – 631 p.
6. Langacker, R. W. Concept, Image, and Symbol: The Cognitive Basis of Grammar. – Berlin: Mouton de Gruyter, 1991. – 395 p.
7. Mahmudov N. O‘zbek tili sotsiolingvistikasining dolzarb muammolari. “O‘zbek tilshunosligini rivojlantirishning dolzarb muammolari”. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami (2020 yil 21 avgust). – Toshkent: O‘zkitobsavdonashriyoti, 2020. – B. 3-15.
8. Mamatov A.E. Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada? // Tilshunoslikning dolzarb masalalari: Prof. A.Nurmonov tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Andijon, 2012. – B. 212-219.
9. Rosch E. Principles of Categorization. In Eleanor Rosch & Barbara Bloom Lloyd, Cognition and Categorization. Lawrence Elbaum Associates. – Los Angeles: University of California, Berkeley, 1978. – P. 29.
10. Safarov Sh. S. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – B. 91.
11. Shayxislamov N.Z. Kognitiv tilshunoslik to‘g‘risida tushuncha va uning universal tabiati. «Scientific progress» ISSN: 2181-1601. – Volume: 1, ISSUE: 5. – B. 408-415.
12. Yuldashev A.G. Til birliklarini kategoriyalashtirishda kognitiv yondashuv//O‘zbekistonda xorijiy tillar. – 2020. – № 4 (33). – B.105-114.